

## ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA “YO’QOTILGAN AVLOD” ESTETIK MEROSNING TALQINI VA YANGICHAYONDASHUVLAR

**To‘rabayeva Sitora Zokir qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Qodirova Zebiniso Odiljon qizi**

Namangan Davlat Chet tillari Instituti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ingliz adabiyotida “Yo‘qotilgan avlod” estetik merosining talqini va unga bo‘lgan yangicha yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda birinchi jahon urushi inson ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’siri, “yo‘qotilganlik” motivining modernizm estetikasi bilan uzviy aloqasi va adabiyotdagi falsafiy mazmuni yoritiladi. Shuningdek, postmodern, psixoanalitik, gender va intertekstual yondashuvlar orqali “Yo‘qotilgan avlod” fenomenining XXI asr adabiyotidagi talqini ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ushbu oqimning zamonaviy adabiy jarayonlarga ta’siri va estetik qadriyat sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Yo‘qotilgan avlod, estetik meros, modernizm, postmodernizm, intertekstual yondashuv, ingliz adabiyoti, zamonaviy talqinlar.

**Annotation:** This article analyzes the interpretation of the aesthetic heritage of the “Lost Generation” in modern English literature and explores innovative approaches to its study. It highlights the impact of World War I on human consciousness and examines the interrelation between the motif of “lostness” and modernist aesthetics. Furthermore, postmodern, psychoanalytic, gender, and intertextual approaches are discussed to reveal how the “Lost Generation” concept has been reinterpreted in 21st-century literary studies. The research emphasizes the enduring influence of this literary movement on contemporary English literature and its role as an aesthetic and philosophical foundation.

**Keywords:** Lost Generation, aesthetic heritage, modernism, postmodernism, intertextuality, English literature, contemporary interpretations

**Аннотация:** В статье рассматривается интерпретация эстетического наследия «Потерянного поколения» в современной английской литературе и анализируются новые подходы к его осмыслению. Особое внимание уделяется влиянию Первой мировой войны на психологию человека и связи мотива «утраты» с эстетикой модернизма. Также анализируются постмодернистские, психоаналитические, гендерные и интертекстуальные подходы, позволяющие по-новому рассмотреть феномен «Потерянного поколения» в литературе XXI

века. В результате подчёркивается значимость этого направления как эстетического и философского источника современного литературного процесса.

**Ключевые слова:** потерянное поколение, эстетическое наследие, модернизм, постмодернизм, интертекстуальность, английская литература, современные интерпретации.

### **Kirish**

XX asr boshlarida jahon adabiyoti, xususan ingliz adabiyoti insoniyat tarixidagi eng og‘ir davrlardan biri — Birinchi jahon urushi oqibatida tub burilish nuqtasiga keldi. Urushdan keyingi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va ma’naviy tanazzul jamiyat hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa badiiy tafakkurda chuqur iz qoldirdi. Aynan shu jarayonlar fonida “Yo‘qotilgan avlod” deb nom olgan adabiy oqim shakllandi. Bu atama urushdan keyingi yosh avlodning ruhiy bo‘shlig‘i, maqsadsizlik va hayotiy yo‘nalishni yo‘qotish holatini ifodalovchi umumiy tushunchaga aylandi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiy oqimi vakillari inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar, ma’nosizlik, qadriyatlar inqirozi va shaxsning ijtimoiy muhit bilan muvofiqlashmasligini badiiy shaklda ifoda etishga intildilar. Ushbu oqimning eng yorqin namoyandalari — Ernest Xeminguey, F. Skott Fitsjerald, Gertruda Stayn, Jon Dos Passos va boshqalar o‘z asarlari orqali zamonaviy insonning ruhiy iztiroblarini, urushdan keyingi jamiyatning ma’naviy bo‘shashini va hayotga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishini tasvirlab berdilar. Mavzuning dolzarbligi shundaki, “Yo‘qotilgan avlod” fenomeni bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. XXI asr adabiyotshunosligida bu oqim estetik meros sifatida qayta ko‘rib chiqilib, zamonaviy falsafiy, psixologik, gender va postkolonial yondashuvlar orqali tahlil qilinmoqda. Zamonaviy ingliz yozuvchilari — Ian McEwan, Kazuo Ishiguro, Julian Barnes singari adiblar ijodida “yo‘qotilganlik”, “xotira”, “o‘zlik” va “ma’nosizlik” motivlarining yangi badiiy shakllarda ifodalanganini ko‘rish mumkin. Shu bois mazkur maqolada “Yo‘qotilgan avlod” estetik merosining zamonaviy ingliz adabiyotida talqin qilinishi, yangi ilmiy yondashuvlar orqali tahlil etilishi va bu oqimning bugungi adabiy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — “Yo‘qotilgan avlod” adabiy oqimining estetik va g‘oyaviy asoslarini aniqlash, uning zamonaviy adabiyotdagi yangicha talqinlarini ilmiy tahlil qilishdir.

### **“Yo‘qotilgan avlod” tushunchasi va adabiy konteksti**

‘Yo‘qotilgan avlod’ atamasi birinchi jahon urushi va unga bog‘liq ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar davrida yuzaga kelgan adabiy oqimni ifodalash uchun

ishlatiladi. Ushbu davr insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan va urush natijasida ko'plab yosh avlod hayotiy maqsadlarini yo'qotgan, qadriyatlaridagi barqarorlikni yo'qotgan davr sifatida tavsiflanadi. Shu sababli "Yo'qotilgan avlod" tushunchasi nafaqat adabiy oqimni, balki inson ruhiyatining murakkab holatlarini, shaxsiy va jamiyatdagi bo'shliqlarni ham o'z ichiga oladi. Adabiy kontekstdan qaraganda, 'Yo'qotilgan avlod' adabiy oqimi XX asrning 20–30-yillarida ingliz va amerika adabiyotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu davr asarlarida birinchi jahon urushining inson ruhiyatiga yetkazgan psixologik zarbalari, shaxsiy qadriyatlarning inqirozi, maqsadsizlik va hayotiy bo'shliqlar markaziy mavzu sifatida ko'tariladi. Oqimning asosiy vakillari Ernest Xeminguey va F. Skott Fitsjerald bo'lib, ularning asarlarida urushdan keyingi jamiyatning ijtimoiy va madaniy holati, insonning ichki kurashlari va ruhiy iztiroblari batafsil tahlil qilinadi. Xeminguey asarlarida, xususan *The Sun Also Rises* romanida, asosiy qahramonlarning hayoti va ularning ichki dunyosi orqali urushning inson ruhiyatiga yetkazgan zarbalari tasvirlanadi. Bu asarlarda maqsadsizlik, ichki bo'shliq va jamiyat bilan muvofiqlashmaslik asosiy mavzu sifatida ko'tariladi. Shuningdek, Fitsjeraldning *The Great Gatsby* asarida insonning orzu va umidlari, jamiyatning moddiy va madaniy qadriyatlari bilan ziddiyatlari batafsil ochib beriladi. Shu tariqa, 'Yo'qotilgan avlod' vakillari o'z asarlari orqali zamonaviy insonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va hayotiy izlanishlarini adabiy jihatdan ifodalaydilar. Bundan tashqari, 'Yo'qotilgan avlod' adabiy oqimi o'quvchilarga inson ruhiyatining murakkabligini, shaxsiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni anglashga imkon yaratadi. Ushbu tushuncha zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarb bo'lib, uning estetik merosi va ijtimoiy konteksti bugungi kunda ham tahlil qilinmoqda. Shu bilan birga, adabiyotshunoslar bu oqimni o'rganishda yangi yondashuvlar qo'llashadi: psixologik, sotsiologik va intertekstual tahlillar orqali klassik asarlar zamonaviy kontekstga moslab talqin qilinadi.

## **2. Estetik meros va zamonaviy talqinlar**

'Yo'qotilgan avlod' adabiy oqimining estetik merosi inson ruhiyatidagi chuqur iztiroblar, shaxsiy va jamiyatdagi bo'shliqlar, shuningdek, urush va zamonaviy hayotning murakkabliklarini o'zida aks ettiradi. Ushbu meros asarlarda insonning ichki dunyosi, hissiy kechinmalari va psixologik holatlari orqali tasvirlanadi. Misol uchun, Ernest Xemingueyning *The Sun Also Rises* romanida asosiy qahramonlarning ruhiy iztiroblari, maqsadsizlik va jamiyat bilan muvofiqlashmaslik orqali zamonaviy insonning ichki bo'shliqlari ochib beriladi. Shuningdek, F. Skott Fitsjeraldning *The Great Gatsby* asarida inson orzulari, hayotiy intilishlar va jamiyatning moddiy qadriyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar batafsil tahlil qilinadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda 'Yo'qotilgan avlod' estetik merosi yangi talqinlar bilan o'rganilmoqda. Adabiy kritiklar bu merosni intertekstual yondashuvlar, psixologik va

sotsiologik tahlillar orqali tahlil qiladilar. Intertekstual yondashuvlar orqali klassik asarlar va zamonaviy badiiy ishlanmalar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi, bu esa adabiy ijodning rivojlanish jarayonini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Psixologik va sotsiologik tahlillar esa asarlarda ifodalangan shaxsiy va ijtimoiy muammolarni yangi jihatdan ochib beradi, shu bilan birga zamonaviy o'quvchi va ijodkorning hayotiy tajribasini boyitadi. Zamonaviy talqinlar shuningdek, 'Yo'qotilgan avlod' merosini XXI asr kontekstida yangicha shakllarda ifodalash imkonini beradi. Masalan, zamonaviy yozuvchilar urush travmasi, identitet muammolari va inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini yangi badiiy shakllarda yaratadilar. Klassik asarlardan ilhom olib, innovatsion motivlar va obrazlar yaratish orqali ular zamonaviy o'quvchiga nafaqat tarixiy, balki universal insoniy tajribalarni yetkazadi. Shu tariqa, 'Yo'qotilgan avlod' estetik merosi nafaqat tarixiy fenomen sifatida, balki zamonaviy adabiyotning rivojlanishida muhim manba sifatida saqlanib qoladi. Yo'qotilgan avlod' estetik merosining o'ziga xos jihatlaridan biri — uning modernizm estetikasi bilan uzviy bog'liqligidir. Modernizmning asosiy tamoyillari bo'lgan parchalanganlik (fragmentarlik), ichki monolog, sub'yektiv tasvir, va inson ongining oqimi "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida o'z aksini topgan. Bu yo'nalish vakillari an'anaviy syujet va kompozitsiyadan voz kechib, inson ruhiyatining murakkab jarayonlarini, ongsiz holatlarni va hissiy kechinmalarni estetik tasvir markaziga qo'yadilar. Shuningdek, ushbu oqim vakillari tomonidan "minimalizm estetikasi" shakllantirildi. Xemingueyning "muz tog'i printsipi" deb ataluvchi uslubi buning yaqqol namunasidir — yozuvchi so'zda kam, ammo ma'noda chuqur ifoda orqali o'quvchini yashirin mazmunni anglashga undaydi. Bu uslub keyingi ingliz va amerika adabiyotida, xususan, Reymond Karver, Jon Updayk, Ian MakEwan singari yozuvchilar ijodida davom etgan Zamonaviy talqinlarda "Yo'qotilgan avlod" merosi postmodernizm nazariyalari orqali ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Postmodern yondashuv bu oqimni yagona tarixiy hodisa emas, balki "insoniyatning ruhiy evolyutsiyasi" jarayonidagi muhim bosqich sifatida talqin qiladi. Adabiyotshunos Lyuis Brooker va Piter Nikolsonlarning tadqiqotlarida "Yo'qotilgan avlod" estetikasining zamonaviy yozuvchilar uchun identitet va ma'nosizlik inqirozi mavzularini qayta ochib berishdagi roli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, gender va postkolonial nazariyalar ham bu estetik merosga yangicha yondashuv olib keldi.<sup>1</sup> Masalan, ayol mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy romanlarda "yo'qotilganlik" motivi endi faqat urush tajribasiga emas, balki ayol identitetining ijtimoiy va madaniy bosimlar ostida yo'qolishi masalasiga ham tadbiiq etilmoqda. Bu orqali "yo'qotilganlik" tushunchasi kengayib, yangi ijtimoiy va madaniy kontekstda talqin qilinmoqda. Zamonaviy ingliz adabiyotida bu estetik meros psixologik realizm, egzistensializm, va hatto metaforik fantastika unsurlari bilan boyitilgan holda davom

etmoqda. Masalan, Julian Barnes, Ian McEwan, va Kazuo Ishiguro singari yozuvchilarning romanlarida inson ruhiyatining iztiroblari, vaqt, xotira va identitet muammolari “Yo‘qotilgan avlod”ning estetik ildizlariga borib taqaladi. Natijada, bugungi adabiyotshunoslikda ‘Yo‘qotilgan avlod’ estetikasi o‘tgan davr mahsuli emas, balki doimiy qayta talqin qilinuvchi va zamonaviylik ruhida yashovchi estetik konsepsiya sifatida e’tirof etiladi.<sup>2</sup> Bu meros bugungi ingliz adabiyotida insonning ma’nosiz hayotga qarshi ichki kurashini, qadriyatlar tanazzulini va ruhiy izlanishni badiiy shaklda ifodalashning zamonaviy modeli sifatida xizmat qilmoqda.

### 3. Yangicha adabiy yondashuvlar

XXI asr ingliz adabiyotshunosligida “Yo‘qotilgan avlod” fenomeni nafaqat tarixiy-estetik hodisa, balki madaniy, psixologik va intertekstual tahlil obyekti sifatida ham o‘rganilmoqda. Yangi adabiy yondashuvlar bu oqimning mazmun-mohiyatini qayta talqin etib, uni zamonaviy g‘oyalar, falsafiy paradigmalarga moslashtirishga xizmat qilmoqda.

Birinchi yondashuv— postmodern talqindir. Postmodern adabiyotshunoslik “Yo‘qotilgan avlod”ni mutlaq yakunlangan tarixiy bosqich emas, balki inson ma’nosizligi va identitet inqirozining davomiy jarayoni sifatida ko‘radi. Postmodern tahlilda Xeminguey va Fitsjerald asarlari intertekstual tarmoqning bir qismi sifatida talqin qilinadi, ya’ni ularning mazmuni yangi matnlar, madaniy belgilar va global tajribalar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — psixologik va psixoanalitik yondashuvlar. Freyd, Yung, va Lakan nazariyalari asosida olib borilayotgan tadqiqotlarda “yo‘qotilganlik” holati shaxsiy travmadan tashqari, kollektiv ongsizlikning ifodasi sifatida ko‘riladi. Masalan, Haminguey qahramonlaridagi hissiy sustlik, o‘zini anglashdagi noaniqlik insoniyatning umumiy ruhiy jarohati sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv zamonaviy romanlarda urush, travma va xotira motivlarini tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Uchinchi yondashuv — gender va postkolonial talqinlar. Feministik adabiyotshunoslik “Yo‘qotilgan avlod”da ko‘tarilgan yo‘qotish, izolyatsiya va ma’nosizlik tushunchalarini ayol tajribasi orqali qayta ko‘rib chiqadi. Masalan, Virjiniya Vulf yoki Djina Berrining tahlillarida “yo‘qotilganlik” endi urush emas, balki patriarxal jamiyatning ayol identitetiga bosimi natijasida yuzaga kelgan holat sifatida talqin qilinadi. Postkolonial yondashuv esa bu oqimni G‘arb markazli tafakkur doirasidan chiqarib, uni global travma va madaniy o‘zlikni yo‘qotish muammolari bilan bog‘laydi.

To‘rtinchi yondashuv — intertekstual va diskursiv tahlil. Adabiyotshunoslar “Yo‘qotilgan avlod” asarlarida mavjud motiv va obrazlarning keyingi adabiy jarayonlarda qanday qayta ishlangani, o‘zga madaniyatlarda qanday rezonans

berganini o'rganadilar. Masalan, Ian McEwan yoki Julian Barnes romanlarida urushdan keyingi inson ruhiyati, xotira va vaqt konsepsiyasi "Yo'qotilgan avlod" estetikasi bilan bevosita bog'lanadi. Bu orqali o'tgan davr adabiy tajribasi zamonaviy badiiy tafakkurda davom etayotgan uzluksiz jarayon sifatida qaraladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, "Yo'qotilgan avlod" fenomeni XX asr adabiy tafakkurida chuqur iz qoldirgan badiiy va estetik hodisa bo'lib, u inson ruhiyati, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda yangi badiiy shakllarni yaratdi. Ushbu oqim vakillari o'z asarlari orqali urushdan keyingi avlodning ma'nosizlik, izolyatsiya va ruhiy iztiroblarini estetik jihatdan ifoda etib, modernizm davrining asosiy ruhiy holatini badiiy shaklda mujassam etdilar. Zamonaviy ingliz adabiyotida bu meros yangicha talqinlarda davom etmoqda. Postmodern, psixologik, intertekstual va gender yondashuvlar "Yo'qotilgan avlod"ning estetik konsepsiyasini qayta ochib, uni hozirgi adabiy jarayon bilan uzviy bog'lab qo'yimoqda. Shuningdek, transmilliy va madaniy-antropologik qarashlar orqali bu fenomen faqat g'arb adabiyotiga emas, balki global madaniy tafakkurga xos umumiy ruhiy iztiroblar bilan hamohang tarzda o'rganilmoqda. Bugungi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan "Yo'qotilgan avlod" endilikda tarixiy bosqich sifatida emas, balki zamonaviy adabiyotda davom etayotgan badiiy-falsafiy konsepsiya sifatida qaralmoqda. Uning estetik merosi bugungi yozuvchilarni inson ruhiyati, xotira, yo'qotish va o'zlikni anglash masalalarini yanada chuqurroq yoritishga undaydi. Shu bois, mazkur oqimning estetik va falsafiy tamoyillari zamonaviy ingliz adabiyotining rivojlanishida, yangi adabiy shakllar va g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishida muhim manba sifatida saqlanib qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Hemingway, E. (1926). *The Sun Also Rises*. New York: Charles Scribner's Sons.
2. Fitzgerald, F. S. (1925). *The Great Gatsby*. New York: Charles Scribner's Sons.
3. Stein, G. (1933). *The Autobiography of Alice B. Toklas*. New York: Harcourt, Brace & Company.
4. Tredell, N. (2010). *Contemporary British Literature*. London: Routledge.
5. Brooker, P. (1992). *Modernism/Postmodernism*. London: Palgrave Macmillan.
6. Lodge, D. (1990). *After Bakhtin: Essays on Fiction and Criticism*. London: Routledge.
7. Levenson, M. (Ed.). (2011). *The Cambridge Companion to Modernism*. Cambridge University Press.